

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

### **“JON”DAGI “ALIF”NING JONFIZO JILVALARI**

**Yusuf TURSUNOV**

*O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi f.f.n.*

**DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803650>**

**Annotatsiya:** Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari badiiyatiga xos go'zal jihatlardan biri ularda ma'naviy va lafziy san'atlarning o'rini va mohirona qo'llanganligidir. E'tiborlisi shundaki, ba'zi o'rinalarda badiiy san'atlar qorishiq tarzda qo'llanishi hisobiga g'oyatda go'zal va ta'sirchan baytalar yaratilgan. Maqolada arab yozuvni tizimida bosh o'rinn tutuvchi "alif" harfi vositasida, xususan, uning جان – "jon" so'zidagi o'rni asosida yuzaga kelgan jozibador yaratmalar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Mumtoz adabiyot, "alif", tashbih, kitobat, badiiy san'atlar, "jon", o'xshatish, mushtarak.

**Аннотация:** Известно, что одной из прекраснейших сторон искусства узбекской классической литературы является правильное и умелое использование в ней духовно-словесного искусства. Примечательно, что в некоторых местах благодаря смешанному использованию художественных приемов создавались очень красивые и впечатляющие стихи. В статье анализируются привлекательные произведения, созданные с помощью буквы «алиф», занимающей ведущее место в арабской письменности, в частности, исходя из ее места в слове «джан» – «душа».

**Ключевые слова:** классическая литература, "алиф", ташбих, китабат, художественное искусство, "душа", сравнение, общее.

**Annotation:** It is known that one of the most beautiful aspects of the art of Uzbek classical literature is the appropriate and skillful use of spiritual and verbal arts in them. It is noteworthy that in some places very beautiful and impressive verses were created due to the mixed use of artistic arts. The article analyzes the attractive creations created by means of the letter "alif", which occupies a leading place in the Arabic writing system, in particular, based on its place in the word "jān" - "soul".

**Key words:** classic literature, "alif", allegory, literature, fine arts, "soul", simile, common.

Xalqimizda insonlarni halollik, to'g'rilik, poklik kabi oliy fazilatlarga undovchi qo'shmisra mavjud:

*Gor "alif"dek to'g'ri bo'lsang, hech balo yo'qdir senga,*

*"Lom alif"dek egri bo'lsang, har balo bordir senga.*

Bayt qanchalar purma'no va ta'sirchan bo'lishi bilan birga badiiyatiga ko'ra ham ko'ngilga marg'ub-u manzurdir. Zero, u Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan kitobat yoki harfiy san'at deb ataluvchi badiiy san'atga asoslanganligidan tashqari yana tarse' va tazod san'atlari bilan ham jilo topgan. O'z navbatida baytning aytilishidagi o'ziga xos ohangdorlik ham uning ta'sirchanligini yanada oshirgan. Bu ohangdorlik misralarda iboraviy qofiyalarning unumli va o'rini qo'llanishi hisobiga yuzaga kelgan, albatta.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Birgina qo'shmisrada xalqimiz ijodiy yaratuvchanligi-yu zukkoligining shunchalar tajassumi. Va yana aytish kerakki, mazkur bayt tilimizda alif harfi asosidagi yagona yaratilma emas, u bilan bog'liq yana qator ibora va birikmalar ham qo'llanib kelinadi. Masalan, "alifni kaltak bilmaydi" frazeologik iborasi. Uni tilimizda qadimdan faol qo'llanib kelinganligini hamma ham bilavermasa kerak. Ehtimol, uning yuzaga kelishi arab yozuvining ona zaminimizga kirib kelishi va ajdodlarimiz tomonidan ilk bora o'zlashtirila boshlaganligi bilan bog'liqdir. Zotan, mulohaza qilib ko'rilsa, yerli xalq, ajdodlarimiz ichidan zehni pastrog'i yoki aksincha, so'zamolrog'i tomonidan "bu alif degani kaltakka o'xshar ekan" qabilidagi "donolik" qilingan bo'lishi va atrofdagilarda istehzo uyg'otganligi bois u dillarga o'mashib qolgan, idroksizlik va omilik namoyon bo'lgan kezlarda esa jonli tilda zikr etila boshlagan bo'lishi kerak. Shu bois, mazkur ibora badiiy ijodga ham "oson kirib kelgan" va o'rni-o'rni bilan qo'llanib turganki, buning ilk namunalaridan birini Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida ko'ramiz. Muallif samarqandlik Mirzo Xoji So'g'diy haqida ma'lumot berar ekan, ba'zida uning xayoliga yaxshi baytlar kelib qolardi mazmunidagi gapni zikr etib, o'shanday baytlaridan birini misol tariqasida keltiradi:

*O'xshatti qomatingg'a sanavbarni bog'bon,  
Bechora bilmas ermiss alifdin tayoqni [1. 64].*

Sanavbar (hozirgi tilimizda "sanobar") qarag'ayga o'xhash tik o'sadigan, doim yashil rangda bo'lib turadigan daraxt. Baytdan bog'bon alifdan tayoqni farqlay bilmas ekan, bo'lmasa qomatingni sanavbarga o'xshatarmidi, degan ma'no kelib chiqadi.

Mazmunan shunga o'xhash baytni Hofiz Xorazmiy ham bitgan ekan:  
*Tikdi qadding niholini "jon"da,  
Alife yanglig' bog'bon ishqing [2.298].*

Bu baytda endi o'xshatish hodisasiga istehzo bilan qarashni emas, balki o'z qismatidan zorlanishga o'xhash holatni ko'ramiz. Zero, unda "bog'bon" so'zi orqali tom ma'nodagi bog' yaratuvchini emas, qismat yaratuvchi Zot nazarda tutilmoqda. Ya'ni, qismat bog'boni "jon" جان so'zidagi alif kabi qadding niholini mening jonimga tikdi. Ma'lumki, "tikdi" qadadi, ekdi, ma'nolariga ham ega. Tilimizdagи "jon(im) halak" iborasini eslasak, "jonda tikdi" iborasining mazmunini tushinishimiz osonlashadi.

Baytda shoir istiora va tashbeh san'atlarini qo'llash orqali iyhom va harfiy san'atlarning go'zal namunasini yarata olgan. Agar birinchi misradagi جان so'zini qo'shtirnoq bilan yozsak, sevgilining qaddi "alif"ga o'xshatiladi, qo'shtirnoqsiz yozilsa, uning nozikligi istioraviy tarzda navniholga o'xshatilgan bo'ladi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, ma'shuqaning raso qaddini "alif"ga mengzash XIV asr shoirlarida faol qo'llanila boshlagan. Aslida kitobat va tashbeh san'atlarining qorishiq

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

tarzidagi ifodasi bo‘lmish bunday badiiy vositaning ilk namunalaridan birini Xo‘jandiyning “Latofatnomasi” asarida uchratamiz:

*“Alif” tek to ‘g’ri bo ‘yliq qoshlari “nun”,*

*Jahon Laylilari husningga Majnun.*

Shunga o‘xshash baytni Hofiz Xorazmiy “Devon”ining yana boshqa bir o‘rnida ham o‘qiymiz. Unda endi muhabbatning “alif”ning bo‘y-basti lirik qahramon jonini o‘rtasa, “nun” yanglig‘ zulfining ishtiyooqi uni yanada aftoda ahvolga soladi. Baytda shoir bir yo‘la uchta badiiy san’at: tashbeh, kitobat va iyhomdan mahorat bilan foydalanadi. Bunda endi alifga nisbatan tashbehni bir daraja yuqoriga ko‘targan, undan – “jon”dagi “alif”ga ishorani uqamiz. Agar bu so‘zni qo‘shtirnoqsiz yozgudek bo‘lsak, lirik qahramonning ichki olamidagi bezovtalikni idrok etamiz:

*Tanimni qilg‘ali ul zulfining havosi “nun”,*

*Alif bikin bo ‘yi o‘rtadi tanda jon ichra [2. 35].*

Shuningdek:

*Yuzi birla zulfini payvasta savdim mohu sol,*

*Ushbu holimg‘a “alif” tak qadim erur ham dol.*

Bir o‘rinda Hofiz Xorazmiy mashuqaning sarvdek qaddini alifga o‘xshatishdan ko‘ngli to‘lmaydi. Zero, “alif” jonsiz bir shakl, u sevgilisi kabi chiroyli xatti-harakatlar qilolmaydi:

*Sarvi qading nechakim o‘xshar alifga, illo,*

*Bo ‘la bilmas “alif” aning biki shirin harakot [4. 73].*

Demak, ushbu tashbeh unchalik maqsadga muvofiq emas ekan. Shoir endi “alif”ning o‘xshatilish obyektini, ya’ni, mushabbihni o‘zgartiradi. Maqsad esa o‘sha-o‘sha, ya’ni suyukli yorining xushqomati-yu go‘zal chehrasi ishtiyooqida oshiqning qaddi “nun” kabi buzik ko‘rinishga kelish manzarasini ifodalash. Buni endi lirik qahramon “alif”ni o‘ziga nisbatan qo‘llagan holda o‘z ahvolini bayon etadi:

*Aning on-i husni bu Hofizning emdi,*

*Aliftak qadi shaklini nun qilasi [4. 211]*

Yoki:

*“Alif” qaddim egildi-yu ko‘rundi chun “dol”,*

*To aning qadi uza zulfi dutoni tiladim [4. 49].*

“Do‘st” radifli g‘azalda navqiron yoshdagagi bir inson vasf etiladi. E’tiborlisi shundaki, Hofiz Xorazmiy o‘sha do‘stiga nisbatan ham mazkur tashbehni qo‘llar ekan uning adl qomatini ochiq tarzda “jon” so‘zi o‘rtasidagi “alif”ga o‘xshatadi va bunga ham qanoatlanmasdan o‘sha qomatni sarvi ravonga ham tashbeh etish bilan ta’sirchanlikni yanada oshirishga erishgan:

*Qading xayoli aliftek miyonni jonda turur,*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*Chun ul qading bila sarv-i ravon erursan, do 'st.*

Bunday jozibador baytlarni keltirishda yana davom etishimiz mumkin. Zeroki, Hofiz Xorazmiy devonida ular talaygina. Biz esa endi Lutfiy she'riyatiga yuzlanamiz. Zotan, uning she'rlarida ham “alif” vositasida yaratilgan badiiy san’atlar o‘rin olgan bo‘lib, ular Lutfiy qalamigagina xos san’atlarni o‘zida namoyon etadi.

Chunonchi, “Ey malaksiymo pari...” deya boshlanuvchi g‘azalida shoir parisifat sevgilisiga bo‘lgan ishqining zo‘rligidan “oh-oh” cheksa-da, ma’shuqa odamiylik yuzasidan “gah-gah” bo‘lsa-da oshig‘ini nazarga ilib qiyo ham boqib qo‘ymaydi:

*Ey malaksiymo ishqing elindin oh-oh,*

*Bir nazar qilsang ne bo 'lg 'ay odamiliq gah-gah [4. 237]*

Mashuqasiga muhabbatni nihoyatda kuchli bo‘lgan lirik qahramonning nazarida shundayki, alifdek qadd-u tor og‘izli ma’shuqasi ishqida hasrat chekib o‘tib ketgudek bo‘lsa, u dafn etilgach qabri yonidan o‘sha dilbar o‘tayotganida ham u yerdan “oh-oh” ovozi ko‘tariladi:

*Chun o ‘larman ul “alif”dek qadd-u tor og ‘zing uchun,*

*Sen o ‘tarda turbatimdin qo ‘pg ‘usidur “oh-oh”*

Lutfiyda ham Hofiz Xorazmiydagi kabi “alif bo‘yluq sanamning halqa-halqa zulfi” vasfini ko‘ramiz. Biroq u zulfni “lom”ga nisbat berishda ochiq o‘xshatish ko‘rinishida emas, balki ishoraviy tarzda ish tutgan holda iyhom san’atini yaratadi:

*Ul alif bo ‘yluq sanamning halqa-halqa zulfidin,*

*Nechakim chektim balolar demadim yuzinda lom [5. 151].*

Ko‘rinadiki, baytdan go‘zal sanamning egma zulflari tufayli balolar chektim, degan ma’noni, shuningdek, alif qadli sanam ishqida tortgan anduhlarimdan uning o‘ziga “lom-mim” demadim, degan ikkinchi bir bir ma’noni uqish mumkin.

Ma’lumki, o‘tmishda yado toshi bilan yomg‘ir yog‘dirishga erishilgan. Lutfiy ana shu hodisa vositasida go‘zal va yana aytish mumkinki, betakror o‘xshatish qiladi. Ya’ni, lirik qahramonni o‘ziga shaydo qilgan toshbag‘r ma’shuqa yado toshi qilgan ishni qiladi – jodu ko‘zları jilvasi bilan oshig‘ining ko‘zlaridan yosh yomg‘irini daryo qilib oqizar ekan, uni oshiq ko‘ngliga o‘tkazib “jon”dagi “alif”dek uning joniga joylaydi.

*Yado qilg‘an kibi ko ‘z jodusindin,*

*Ko ‘zumning yomg ‘urun daryo qilbsan.*

*Kirib ko ‘zdin ko ‘ngulga ani tortib,*

*Alifdek “jon” ichinda jo qilbsan [5. 180].*

Biz yuqorida Hofiz Xorazmiy ma’shuqasining sarvdek qaddini alifga o‘xshatishidan ko‘ngli to‘lmaganligini, chunki alif chiroyli harakatlar qilolmasligini ta’kidlaganligini keltirgan edik. Lutfiyga esa mazkur tashbeh maqbul kelmaydi.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Shuning uchun bu borada novatorlikka qo'l uradi. Unga ko'ra, shoirning ma'shuqasi uzoqdan ko'rinar ekan, xuddi jondek namoyon bo'ladi. Voqe'an dilbarining sochi "jim", qaddi "alif" va qoshi "nun" misolidir, ularning hosilasi esa جان "jon"dir.

*Jon dedi oni Lutfiy yiroqtin cho ' ko 'rundi,*

*"Jim" sochi, "alif" qadi bila ul qoshi "nun"i [5. 295].*

Alif vositasida tashbeh san'atini yaratish Otoyida ham uchraydi. Biroq unda "alif qadlig'", "alif bikin bo'y'i", "aliftak qadi" iboralarni emas, "siym alif kibi barmoq" birikmasini ko'ramiz. Ushbu vasf dildorning barmog'iga nisbatan qo'llangan. Biroq shoirning assosiy maqsadi shugina emas, balki ma'shuqaning "siym alifdek barmog'i" bilan o'z og'zini ko'rsatish orqali uning chehrasi chiroyli xatga, (ehtimol, lablari tepasidagi maysadek mayin tuklari) og'zi esa xat so'ngidagi nuqtaga o'xshashligini ta'kidlashdir:

*La 'lingg'a siym alif kibi barmoqni kelturub,*

*Dersinki, nuqtadur, bale xatting nihoyati.*

Ko'rindiki, har ikki misrada tashbeh san'atining yaratilganligi va ana shu san'atga payvasta bo'lgan istiora san'atining qo'llanilganligi ("La'lingg'a") tufayli bayt nihoyatda ta'sirchan chiqqan.

La'l yanglig' lab va alif misol barmoqning tutashgan holatdagi badiiy tasvirni Alisher Navoiyda ham o'qiymiz va buyuk mutafakkirning bemisl mahorat egasi ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Zero, unda o'ta go'zal badiiyat va g'oyatda hayratlanarli ishorat mujassamdir:

*Barmog'i hayrat bilakim, la 'li xandon ichradur,*

*Ul "alif" yanglig' dururkim, filmasal jon ichradur [6. 183].*

E'tiborli manzara: dilbar nozikkina barmog'ini labiga bosganicha nimadandir hayratlanib boqmoqda. Lirik qahramonning e'tiborini tortayotgan jihat o'sha qizning hayrat ila boqishiga sabab bo'lgan narsa emas, balki uning alif yanglig' barmog'i-yu tabassumli lablaridir. Shoir nazdida uning barmog'i xuddi "jon" – جان – so'zidagi "alif"ni eslatadi. Bu baytning zohiriyo ko'rinishiga ko'ra, albatta. Deylik, agar musavvir jahd etsa, ushbu manzarani chizib tashlay oladi. Biroq, asosiy gap boshqa tomonda, ya'ni baytning botiniy mazmunidadir. Shundayki, o'sha nozikkina barmoq bamisol jon ichida turgandek, ya'ni jon bag'ishlovchi lablar orasidadir, bordi-yu lablar o'likning labiga tekkudek bo'lsa, o'lik tiriladi. Buni esa hech qanday rassom tasvirlab berolmaydi. Demak, Navoiy ham Hofiz Xorazmiy kabi "jon" so'zi va undagi "alif" harfi orqali iyhom hamda kitobat san'atlarining mushtarak namunalarini yaratgan.

Navoiy "Emish" radifli g'azalida "alif" vositasida badiiy san'atlar yaratishni yanada yuqori pog'onaga ko'taradi. G'azal lirik qahramonning berahm va beparvo

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

yordan zorlanish, ishq tufayli qanchalar ko‘rgiliklarga duchor bo‘lgani-yu iztiroblar chekayotganligidan nolish bilan boshlanadi:

*Oshiq o‘ldim, bilmadim yor o‘zgalarga yor emish,  
Alloh-alloh ishq aro bunday balolar bor emish [6. 382].*

Bunday iztirob-u zorlanishlar ifodasi mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ijodi uchun deyarli oddiy hol. Ammo keyingi baytda esa Navoiygagina xos bo‘lgan badiiyat namunasini ko‘ramiz. Zero, unda tamsil, iyhom va istiora san’atlari mahorat bilan qorishiq tarzda yaratilgan, alif vositasida esa tamoman yangicha ijodiy yaratmani ko‘ramiz:

*Qaddig‘a el mayli bo‘lg‘andin ko‘ngul ozurdadur,  
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.*

Ko‘rinib turganidek, ushbu baytda alifni qo‘shtirnoq orasida yozib “o” o‘rnida qabul qilsak va “zorlarning” so‘zini bosh qismi, ya’ni birinchi bo‘g‘inini ajratib olsakda oldiga “o”ni qo‘ysak “ozor”— ازار hosil bo‘ladi – kitobat san’ati. Bordi-yu, misrada “alif” deya tik qomatli yor nazarda tutilayotganligini hisobga olsak, u istiora bo‘ladi va o‘sha yor yonida ishqida zorlar tursa ,bundan ularga ozor yetadi. Ana shu tariqa iyhom san’ati yuzaga kelmoqda.

Navoiyda “jon”dagi alifga go‘zal qaddan tashqari oddiy buyumlarga ham nisbat berilgan misralarni o‘qiymiz. Albatta, bu oddiygina holat ifodasi emas, balki, muallifning hayajonli onlarida real voqelik asnosida yuzaga kelgan tasvirdir. Shoir do‘siti Sulton Husayn Boyqarodan maktub olarkan bundan g‘oyatda mamnunligini shunday ifodalaydi:

*Jonda qo‘ydum chirmag‘on maktubini hijron aro,  
Bilmon, ul maktub erur yohud alifdur “jon” aro [7. 71].*

O‘ram holiga keltirilgan bu maktubni jonimga qo‘ydim. Bilmadim , u maktubmi yoki “jon” so‘zidagi “alif”mi, mazmunidagi ushbu baytda tajnis, tajohuli orif, kitobat va tashbih san’atlari mujassamdir.

“Munshaot”dagi Sultondan kelgan yana bir maktub tufayli deyarli shunday mazmundagi noma mavjud, faqat unda xat muallifiga ehtirom kuchliroq ifodalangan:

*O‘pub ko‘zumga qo‘yub, jonim ichra yer berdim,  
Alif kabiki bo‘lubtur makoni “jon” ichra [8. 86].*

Shuningdek, Navoiy she’rlarida “alif” yonida boshqa harflarni ham qo‘llagan holda kitobat va tashbeh san’atlarining payvasta namunalarini yaratgan:

*Alifkabi qading ul iki “lom”i zulfi ichra ko‘rungach,  
O‘ldum alar vasfin aylamakin lol [8. 272].*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotimiz namoyondalari, xususan, Alisher Navoiy lirik merosini o‘rganishda bu kabi betakror badiiy san’at namunalari shoir ijodiy maqsadini yoritish vositasidek muhim vazifani bajaradi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

**(Использованная литература/ References):**

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. –Т., 1997, 64-бет.
2. Ҳофиз Хоразмий. Девон 1-китоб. –Т., 1981, 298-бет.
3. O‘zbek adabiyoti. Birinchi tom. T.,O‘zSSR Davlat baddiyy nash-ti, 1959.
4. Ҳофиз Хоразмий. Девон 2-китоб. –Т., 1981, 211-бет.
5. Лутфий. Сенсан севарим. Ўзбек адабиёти бўстон. –Т.,1987 237-бет.
6. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний, 1 Фаройибус-сигар. –Т., 1959, 183-бет.
7. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний, 2 “Наводир уш-шабаб”. –Т., 1959, 382-бет.
8. Ю.Турсунов. “Муншаот” асарининг матний тадқиқи. –Т.,2016., 71-86-бетлар.